

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

EKSTREMIZM VA TERRORIZMGA QARSHI KURASHDA YOSHLARNI DINIY BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO TOTUVLIK RUHIDA TARBIYALASH MASALALARI

Rasulova Aziza

TDPU "Ma'naviyat asoslari va huquq ta'lif" kafedrasi katta o'qituvchisi



Dunyoda terrorizm tahdidlari ayniqsa, so'nggi yillarda kuchayib borayotgani ularga qarshi asosan kuch ishlatish yo'li bilan kurashish usuli o'zini oqlamayotganidan dalolat beradi. Bu borada ko'p hollarda tahdidlarni keltirib chiqarayotgan asosiy sabablar bilan emas, balki ularning oqibatlariga qarshi kurashish bilangina cheklanib qolinmoqda. Xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etadi, deb hisoblayman.

Sh.M.Mirziyoyev

Аннотация

В данной статье в канун нового тысячелетия в результате краха bipolarной системы, кризиса социалистического лагеря, господствовавшего почти в половине мира, условия возникновения ряда независимых государства на месте царства Советов основаны. Было разъяснено, что эти страны находятся на пути построения демократического общества, основанного на рыночной экономике, а ряд сфер общественной жизни развиваются свободно от различных догм и ограничений. Выявлено, что тысячелетняя история нашего народа, национально-духовные ценности, истоки религии, годами находившиеся под запретом, вновь открыты.

Ключевые слова: Фанатизм, миссионерство, религиозный экстремизм, террор, фанатизм, «Всемирная операция», миссионерство.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Bir qancha mamlakatlarda keskin siyosiy kurash borayotgan bir vaqtida demokratiya asoslarining ba'zan qiyinchilik bilan qaror topishi; milliy o'zlikni anglashning faol jonlanishi hamda millatlar va ayrim ellatlarning o'z taqdirini o'zi belgilashga intilishi; etnik va millatlararo ziddiyatlarning saqlanib qolayotganligi; qotib qolgan mafkuraviy aqidalarning qadrsizlanishi hamda siyosiy va diniy ekstremizmning turli shakllari kuchayib borayotganligi; o'z tartib-qoidalarini xalqaro demokratik qadriyat sifatida boshqa xalqlarning ijtimoiy-siyosiy hayotiga turli yo'llar bilan tizishtirishga intilish; dunyoning katta qismida iqtisodi zaif, aholisi qashshoq yashayotgan mamlakatlar saqlanib qolayotganligi dunyo hali ham avvalgidek mo'rt bo'lib qolayotganidan dalolat beradi. Bizni qurshab turgan olam g'oyat murakkab va muammoli bo'lib kelgan, shunday bo'lib qolmoqda.

XX asr oxiri XXI asr boshlarida ko'zga tashlana boshlagan diniy mutaassiblik, ekstremizm, terrorizm, missionerlik, ommaviy madaniyat kabi tahdidlar davlat va jamiyat xavfsizligi, fuqarolar tinchligiga jiddiy xatar sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunday tahdidlarning asl ildizi qaerda, ularning asl niyati nima, unga qarshi qanday kurashish lozim kabi savollarga anik ilmiy javob berish, yoshlarga diniy ekstremizm, terrorizm va missionerlikning asl mazmun-mohiyati, ularning g'arazli maqsadlarini tushuntirish, ularda bu kabi yot qarashlarga nisbatan g'oyaviy immunitetni shakllantirish bugungi kundagi dolzarb masala sifatida tan olinayapti. "... hozirgi vaqtida dunyo miqyosida hukm surayotgan tahlikali vaziyat, siyosiy va iqtisodiy inqirozlardan tashvishga tushmayotgan birorta davlat yoki jamiyat yo'q, desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi.

Ayniqsa, xalqaro terrorizm, ekstremizm, narkotrafik, diniy qarama-qarshilik, noqonuniy migratsiya, odam savdosi, ekologik muammolar, ayrim mintaqalarda iqtisodiy nochorlik, ishsizlik, qashshoqlik kuchayib borayotgani butun insoniyatni qattiq xavotirga solmoqda" [1:473].

Qisqacha holatda yuqorida tilga olingan tahdidlar haqida so'z yuritadigan bo'lsak, u holda ekstremizm (lotincha – "aql bovar qilmas darajada", "haddan oshish") – jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalarga zid bo'lgan keskin radikal qarashlar va harakatlar. Bunday harakatlarga diniy tus berish diniy ekstremizmga olib keladi [2:82].

Diniy ekstremizm – jamiyat uchun an'anaviy bo'lgan diniy qadriyatlar va aqidaparastlarni rad etish, ularga zid bo'lgan g'oyalarni aldov va zo'rlik bilan targ'ib qilishga asoslangan nazariya va amaliyot.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Aqidaparastlik (arabcha – “ishonch”, “biror narsani ikkinchisiga bog‘lash”) muayyan sharoitda, biron-bir g‘oya yoki tamoyilga qat’iy ishonch va uni mutlaqlashtirish asosida shakllangan qoida va tartiblarni sharoit, holat, vaziyatni hisobga olmagan holda, ko‘r-ko‘rona qo‘llashga urinishni anglatadi. U muayyan qonun va qoidalar ta’sir doirasini sun’iy ravishda kengaytirishga urinishda yorqin namoyon bo‘ladi. U yoki bu hodisa, qoida yoki tamoyilni mutlaqlashtirishga asoslangan yondashuvni ijtimoiy hayotning istagan sohasidan topish mumkin.

Mutaassiblik (“fanatizm”, - fransuzcha – “ibodat”) muayyan g‘oyalarning to‘g‘ri ekaniga qattiq ishonish, ularga mukkasidan berilish, “o‘zgalar” va “o‘zgacha” qarash va g‘oyalarga murosaschiz munosabatda bo‘lish, boshqa firqa va mazhablarni butunlay rad etgan holda, ularni tan olmaslikdan namoyon bo‘ladi.

Mutaassiblik barcha davrlarda turli din va yo‘nalishlar orasida keskin nizo va to‘qnashuvlar kelib chiqishiga sabab bo‘lgan. Ongi zaharlangan va mutaassibga aylangan kishilar o‘zлari qilayotgan ishlarni to‘g‘ri deb hisoblagan holda, har qanday nomaqbul ishlardan ham bosh tortmaydilar.

“Mutaassiblik[3:12]” (arab, “g‘uluv ketish”, “chuqur ketish”) muayyan g‘oyalarning to‘g‘ri ekaniga qattiq ishonish, ularga mukkasidan berilish, “o‘zgalar” va “o‘zgacha” qarash hamda g‘oyalarga murosasiz munosabatda bo‘lish, boshqa firqa va mazhablarni butunlay rad etishi, ularni tan olmaslikda namoyon bo‘ladi. Mutaassiblik barcha davrlarda turli din va yo‘nalishlar orasida keskin nizo va to‘qnashuvlar kelib chiqishiga sabab bo‘lgan.

Ongi zaharlangan va mutaassibga aylangan kishilar o‘zлari qilayotgan ishlarni to‘g‘ri deb hisoblab, har qanday nomaqbul ishlardan ham bosh tortmaydilar. Vaholanki, ularni bu yo‘lga boshlagan “rahnomalar”ning asl maqsadi mohiyatan g‘ayriinsoniy harakterga ega. Mutaassiblikning jirkanch basharasi dunyoning turli nuqtalarida sodir etilayotgan qo‘poruvchilik va xunrezlik voqealarida yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Ayni paytda, dunyoviy va diniy bilimlarning sayozligi, sof diniy tushunchalarning asl mazmunini bilmaslik ham mutaassiblik g‘oyalarning tarqalishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bu jarayonning eng xatarli jihatni dinni siyosiylashtirish vositasida hokimiyatga intilish, dinni noto‘g‘ri talqin qilish bilan odamlar orasiga nifoq solish, qo‘poruvchilik ishlarini amalga oshirish va g‘arazli manfaatlarni ro‘yobga chiqarishga urinishlarda namoyon bo‘lmoqda.

Demak, diniy ekstremizm kelib chiqishining birinchi va asosiy sababi mutaassib fikr va qarashlarning paydo bo‘lishidir. Mutaassiblik diniy ekstremizm va terrorizmga



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

zamin tayyorlaydi. Shu o‘rin qayd etish joizki, ko‘p manbaalarda ishlatalig“aqidaparastlik” so‘zi hozirgi vogelikdan kelib chiqib “mutaassiblik” so‘zi bilan almashtirilgan holda istefoda etilmoqda.

“Terror[4:18]” (lotincha – “qo‘rqtish”, “vahimaga solish”) – aholining keng qatlamlarida dahshat va qo‘rquv uyg‘otish, jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish orqali davlat hokimiyatini egallash maqsadiga qaratilgan jinoiy faoliyatdir.

Terror – ommaviy va siyosiy maqsadlarga erishish uchun zo‘ravonlikdan hamda zo‘ravonlik qilish bilan tahdid solishdan muntazam foydalanishdir. Shunday qilib, “terror” dushmanni jismoniy zo‘ravonlik yo‘li bilan qo‘rqtish, hatto uni jismonan yo‘q qilishni anglatadi. “Terrorizm” esa terror amaliyotidir. Bu ikki tushunchani shu tarzda chegaralash maqbul bo‘lsa, u holda terrordan kelib chiqqan terrorizm aslo yangi hodisa bo‘lmay, bizgacha asrlar qo‘ynidan kelgan, deb hisoblash mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida “terrorizm”ga quyidagicha ta’rif berilgan: “Terrorizm – xalqaro munosabatlarni murakkablashtirish, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzish, xavfsizligiga putr yetkazish, urush va qurolli mojarolar chiqarish, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni barqarorlashtirish, aholini qo‘rqtish maqsadida davlat organini, xalqaro tashkilotni, ularning mansabdor shaxslarini, jismoniy va yuridik shaxsni biron bir faoliyatini amalga oshirishga yoki amalga oshirishdan tiyilishga majbur qilish uchun zo‘rlik, kuch ishlatalish, shaxs yoki mol-mulkka xavf tug‘diruvchi boshqa qilmishlar yoxud ularni amalga oshirish tahdidi, shuningdek, terrorchilik tashkilotining mavjud bo‘lishini, ishlab turishini, moliyalashtirilishni ta’minalashga, terrorchilik harakatlarini tayyorlash va sodir etishga, terrorchilik tashkilotlariga yoxud terrorchilik faoliyatiga ko‘maklashayotgan yoki bunday faoliyatda ishtirot etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita har qanday mablag‘-vositalar va resurslar berish yoki yig‘ishga, boshqa xizmatlar ko‘rsatishga qaratilgan faoliyat[5:48]”.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 2000 yil 15 dekabrda qabul qilingan, “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonunida quyidagicha ta’rif berilgan: “Terrorizm – siyosiy, diniy, mafkuraviy va boshqa maqsadlarga erishish uchun shaxsning hayoti, sog‘ligiga xavf tug‘diruvchi, mol-mulk va boshqa moddiy ob‘ektlarning yo‘q qilinishi (shikastlantirilishi) xavfini keltirib chiqaruvchi hamda davlatni, xalqaro tashkilotni, jismoniy va yuridik shaxsni biron bir harakatlar sodir etishga yoki sodir etishdan tiyilishga majbur etishga, xalqaro munosabatlarni murakkablashtirishga, davlatning suverenitetini, xududiy yaxlitligini buzishga, xavfsizligiga putur yetkazishga, qurolli mojarolar chiqarishni ko‘zlab ig‘vogarliklar



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

qilishga, aholini qo‘rqtishga, ijtimoiy siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga qaratilgan, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida javobgarlik nazarda tutilgan zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqtish yoki boshqa jinoiy qilmishlari; terrorchiterrorchilik faoliyatini amalga oshirishda ishtirok etayotgan shaxs, terrorchilik guruhi – oldindan til biriktirib terrorchilik harakatini sodir etgan, bunday harakatga tayyorgarlik ko‘rgan yoki uni sodir etishga suisqasd qilgan shaxslar guruhi: terrorchilik tashkiloti – ikki yoki undan ortiq shaxsning yoki terrorchilik guruhining terrorchilik faoliyatini amalga oshirish uchun barqaror birlashuvi”.

Yuqorida keltirilgan ta’riflarda terrorizmning nihoyatda muhim bir xususiyati – uning muayyan siyosiy maqsadi yoki amaliy natijalariga emas, balki u yoki bu xuruj natijasida odamlar orasida, ijtimoiy fikrda yuzaga keladigan xavotirli aks-sado, shov-shuvga erishishga qaratilgani ta’kidlangan. XX asrning 60-yillaridan boshlab, terrorizmning mojarolarni keltirib chiqaruvchi hodisa sifatidagi salohiyati, butunbutun mintaqalar yo‘nalishi turlicha bo‘lgan terrorchi tashkilotlar va guruhlar faoliyat ko‘rsatgan joylarga aylanib qoldi. Buning natijasida, terrorchilik harakatining ko‘lamgina emas, balki metodlari ham o‘zgaradi. Uning eng dahshatlko‘rinishlaridan biri – o‘zini avvaldan o‘limga tayyorlagan terrorchi-kamikadzelar tomonidan amalga oshirilayotgan harakatlarni keltirish mumkin.

Yana bir tahdidlardan biri missionerlik va prozelitizmdir. Aslini olganda, missionerlik va prozelitizm din bilan bog‘liq holda shakllangan hamda mutaasiblikka asoslangan hodisalar hisoblanadi.

Missionerlik[6:44-45] so‘zi lotin tilidagi “missio” fe’lidan olingan bo‘lib, “yuborish”, “vazifa topshirish”, missioner esa “vazifani bajaruvchi” degan ma’nolarni anglatadi. Missionerlik bir dinga e’tiqod qiluvchi xalqlar orasida boshqa bir dinni targ‘ib qilish bilan bog‘liq nazariy va amaliy faoliyatni bildiradi. Bugungi kunda Xristian missionerlari dunyodagi umumiy missionerlarning 2/3 qismini tashkil etadi.

Missionerlikning uzviy qismi bo‘lgan prozelitizm – to‘g‘ridan-to‘g‘ri biron-bir dinga ishongan fuqaroni o‘z dinidan voz kechishga va o‘zga dinni qabul qlishga majbur qilishni anglatadi.

Hozirda missionerlik faoliyati bilan faol shug‘ullanayotgan tashkilotlar sifatida “Yettinchi kun Adventislari” va “Iegovo shohidlari” missionerlik tashkilotlarini e’tirof etish mumkin. Bugungi kunda “Ettinchi kun Adventistlari”ning dunyo bo‘yicha 5000 dan ortiq o‘quv markazlari mavjud. “Iegovo shohidlari” tarafdarlarining dunyo bo‘yicha soni esa qariyb 7,6 millionni tashkil etadi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Zamonaviy xalqaro missiyalar bugungi kunda o‘z faoliyatini:

- yangi xalqaro missiyaning maqsad va vazifalarini e’lon qilib, keng ko‘lamdagi tushuntirish ishlarini olib borish;
- xalqaro missiya tarkibida ma’lum mamlakatga yuboriladigan ko‘ngilli nomzodlarni aniqlash;
- ko‘ngilli nomzodlar orasida bo‘lajak xalqaro missionerlarni tanlab olish;
- tanlab olingan bo‘lajak missionerlarni maxsus maktablarda o‘zlar yuboriladigan mamlakat aholisi, ularning tili, urf-odatlari, faoliyat olib borishning samarali vositalari va usullari bo‘yicha maxsus tayyorgarlikdan o‘tkazish;
- tayyor bo‘lgan missionerni tegishli moliyaviy manbalar va maxsus rejalar bilan ta’milagan holda belgilangan mamlakatga jo‘natishdek besh bosqichda amalga oshirayotganini alohida qayd etish zarur.

Qayd etilgan xususiyalar ham zamonaviy xalqaro missiyalar o‘z faoliyatini tizimli va tadrijiy tashkil etayotgani haqida xulosa chiqarish imkonini beradi.

Missionerlik faoliyatida quyidagi usullardan keng foydalanilmoqda:

- nodavlat notijorat tashkilotlar sifatidia soxta insonparvar yordam ko‘rsatish bahonasida o‘z ta’sir doirasini kengaytirish;
- xayriya yordami ko‘rsatish, birinchi navbatda, moddiy yordam, dori-darmon, bepul tibbiy yordam ko‘rsatiish, oziq-ovqat mahsulotlari tarqatish;
- mahalliy tilda missionerlik gazeta-jurnallarini nashr etish va tub aholi ichida tarqatiish;
- turli mavzularda ko‘rgazmalar, shuningdek, sport musobaqalari o‘tkazish va g‘oliblarga maxsus bukletlar tarqatish;
- tibbiy, ta’lim-tarbiya sohalariga maxsus missioner mutaxassislarni yuborish va h.k.

Missionerlikda yoshlarga alohida e’tibor berilishining asosiy sabablari – yoshlarning faol ijtimoiy kuchga aylanib borayotgani bugungi kunda ularning turli mafkuraviy ta’sir va tazyiqlarning bosh ob’ektiga aylanishiga olib keldi. Bunda ularning jamiyatning hali yetarli tajribaga ega bo‘lmagan, tashqi ta’sirlarga tez beriluvchan va ayni paytda, eng harakatchan qatlami ekani inobatga olinmoqda. Missionerlikning taniqli nazariyotchisi P.Djonstoun talaba yoshlarni missionerlik faoliyatining asosiy ob’ekti deb qarab, o‘zining “Dunyo operatsiyasi” kitobida, jumladan, shunday yozadi: “Butun dunyoda universitet va kollejlarda 37 million talaba tahsil oladi. Ularning ko‘plari 20 yildan so‘ng yirik mansablarni egallahadi”. Ushbu fikrlar missionerlarning jamiyat ertangi kunini belgilab beradigan avlod



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

ongini egallahsh, nazorat qilishni ko‘zlab ish yuritayotganini anglash imkoniyatini beradi[7:9-10].

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, zamonaviy voqelik inson qalbi va ongi uchun bo‘lgan kurashlarning yangidan-yangi usul va vositalarining ko‘payib borayotgani, ayniqsa, bu borada din omildan foydalanishga urinilarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bugungi kunda insonlarni bunday zararli, ta’bir joiz bo‘lsa, manfur ofatlardan, xavf-xatarlardan asrab-avaylash barchani yanada xushyorlikka, ehtiyyotkorlikka, har jihatdan aql-idrok bilan ish tutishga undaydi. Bizning nazdimizda hozirdan yangi tizimning mohiyatini ochib beruvchi bir qator masalalar ustida bosh qotirishga to‘g‘ri keladi. Bu vazifalarning yechimi bo‘lg‘usi pedagog kadrlar oldiga ulkan vazifalarni qo‘yadi. Mustaqillik mamlakatimiz ma’naviy taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi: dinga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi; tom ma’nodagi vijdon erkinligi ta’min etildi; diniy bag‘rikenglik hayotiy tamoyilga aylandi; milliy-diniy qadriyatlar tiklandi; diniy tashkilotlar soni oshib bormoqda, 10 dan ortiq diniy o‘quv muassasi faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ularni bartaraf etish uchun barchamiz bir yoqadan bosh chiqarib, harakat qilishimiz talab etiladi. Bu yo‘lda bir-biri bilan o‘zviy bog‘liq muammolarni yechishga alohida e’tibor berishda:

Birinchidan, sog‘lom fikr va dunyoqarashga ega bo‘lgan pedagog kadrlarni tayyorlash, ularning salohiyatini yurt osoyishtaligi va xalq farovonligi yo‘lida safarbar qilishga keng imkoniyatlar yaratib berish.

Ikkinchidan, turli millat va elat orasida totuvlikni mustahkamlash tomon qaratilgan tadbirlarning hozirjavobligi va ta’sirchanligini oshirish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osiyoda qadimdan turli millat va elat vakillari yashab kelgan bo‘lib, ular o‘rtasidagi ahillik, hamkorlik hududdagi iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ilm – fan ravnaqini ta’min etib kelgan. Sh.M.Mirziyoev O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimidagi nutqida shunday degan edi: «Mamlakatimizda hukm surayotgan millatlar va fuqarolar totuvligi, o‘zaro hurmat va mehr-oqibat muhitini ko‘z qorachig‘idek saqlash hamda mustahkamlashni o‘zimning ustuvor vazifam deb hisoblayman»[8:138].

Uchinchidan, dinning asl insonparvarlik mohiyatini asrash, uning ma’naviy-ma’rifiy salohiyatini jamiyatdagi barqarorlik, ijtimoiy hamkorlik, konfessiyalararo



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

hamjihatlikni mustahkamlashga yo'naltirish borasidagi ishlarda tadrijiylikni ta'minlashdan iboratdir.

To'rtinchidan, Davlatimizning vijdon erkinligi sohasida olib borayotgan siyosatini, hamda uning amaliy natijasi bo'lmish qaror topgan diniy bag'rikenglik muhitini yoshlar orasida keng yoritishga qaratilgan tadbirlarning samaradorligini oshirish; Beshinchidan, Islom dinini siyosatga aylantirayotgan, yovuzlik va terrorchilik mafkurasini yaratayotgan ko'plab radikal va ekstremistik markazlarning, birinchi navbatda, yoshlar ongini zaharlab, zombiga aylantirib, ulardan terrorchilar tayyorlash buyicha konveyer tashkil etayotgan, halifalik tuzishdek turli xomxayollarni amalga oshirishga urinayotgan qabih kuchlarning ildizini qirqib tashlash borasidagi ma'rifiy ishlarni kuchaytirish darkor.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –Toshkent: "O'zbekiston" NMIU,2017. 473-b.
2. Диний экстремизм ва терроризмга қарши курашишнинг маънавий-маърифий асослари. Муаллифлар грухси. Тошкент ислом университети нашриёти. 2008. –Б. 82.
3. Абдуллажонов О. Диний ақидапарастликнинг келиб чиқиши, моҳияти ва Ўзбекистонга кириб келиши. –Тошкент: 2000. –Б. 12.
4. Раҳматов О. Огоҳлик муқаддас бурч. –Тошкент: 1999. –Б. 18.
5. Ҳасанов А., Юсупов О., Шермуҳамедов К.,Faфуров У., Каримов Ж. Диний мутаассиблик: моҳият масалалар ва олдини олиш йўллари. –Тошкент: 2013 ЎзМУ. –Б. 48.
6. Наджмитдинов Ж. Миссионерлик кеча ва бугун. –Тошкент: 2008. ТИУ нашриёти. –Б. 32; Очилдиев А., Наджмитдинов Ж. Миссионерлик: моҳият, масалалар, оқибатлар ва олдини олиш йўллари (юз саволга юз жавоб). –Т.: ТИУ нашриёти. 2009. –Б. 44-45.
7. Ёшлар ўртасида диний экстремистик ғоялар, миссионерлик ва прозелитизм тарқалишининг олдини олиш. Услубий қўлланма. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги дин ишлари бўйича қўмита. –Тошкент: 2013. –Б. 6-10.
8. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. –Тошкент: "Ўзбекистон" НМИУ,2017.-138-б.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

9. Mirbaxramovna, R. A. (2022). PEDAGOGICAL CONDITIONS OF EDUCATION OF STUDENTS ON THE BASIS OF THE IDEA OF LOYALTY TO NATIONAL AND UNIVERSAL VALUES. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 4(02), 40-43.
10. Mirbaxramovna, R. A. (2022). PEDAGOGICAL CONDITIONS OF EDUCATION OF STUDENTS ON THE BASIS OF THE IDEA OF LOYALTY TO NATIONAL AND UNIVERSAL VALUES. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 4(02), 40-43.
11. Aziza, R. (2022). The role of islamic values in determining freedom of religious belief in independent Uzbekistan. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(11), 81-87.
12. Jumaniyozov, X. S., Nigmanova, U. B., Rasulova, A. M., & Abdug‘aniyev, O. T. (2022). THE ESSENCE OF THE PHENOMENA OF EXTREMISM AND TERRORISM IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION AND ITS THREAT TO THE STABILITY OF THE INTERNATIONAL COMMUNITY. *Ann. For. Res*, 65(1), 9173-9179.
13. Safoyevich, J. X., & Farrukh, N. (2021). The Relationship Between the West and the Islamic World in International Geopolitical Processes. *Middle European Scientific Bulletin*, 17, 280-283.
14. Sapayevich, J. X. (2022). OPPORTUNITIES OF CENTRAL ASIAN STATES IN THE SYSTEM OF INTERNATIONAL GEOPOLITICAL RELATIONS. *World Bulletin of Social Sciences*, 9, 129-131.
15. Жуманиязов, X. С., & Нигманова, У. Б. (2019). Трудовой подвиг народов Узбекистана в годы Второй мировой войны. Эшелоны идут на восток. Эвакуация в Узбекистан в годы Великой Отечественной войны, 145.
16. Sobirova, M. A. (2022). THE SUCCESS OF THE INFORMATION AGE AND PROBLEMS. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 11, 111-115.
17. Собирова, М. А. (2023, January). РАЗВИТИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ДУХОВНОСТИ ПОСРЕДСТВОМ НАЦИОНАЛЬНЫХ ОБЫЧАЕВ, ТРАДИЦИЙ И ЦЕННОСТЕЙ. In *Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies* (Vol. 2, No. 1, pp. 172-179).
18. Absattarov, B. M. (2019). EVOLUTION OF VIEWS ON ETHICS, ETHICAL CRITERIA AND ETHICAL STANDARDS. In *НОВАЯ НАУКА:*

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ (pp. 135-141).

19. Absattorov, B. M. (2019). SPIRITUAL AND MORAL DEVELOPMENT OF THE PERSON IN MODERN WORLD. *Central Asian Problems of Modern Science and Education*, 4(2), 167-173.
20. Mamarasulovich, A. B. (2022). RELIGIOUS AND PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF HUMAN MORAL DEVELOPMENT. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 11, 154-163.
21. Mamarasulovich, A. B. (2022). RELIGIOUS AND PHILOSOPHICAL ASPECTS OF HUMAN MORAL DEVELOPMENT. *Conferencea*, 197-201.
22. Mukhammadievich, K. J., Mamarasulovich, A. B., & Olimjanovich, X. A. (2022, December). THE POSITION OF AL-FARABI AND IBN SINA IN THE CONTROVERSY OF THE HISTORY OF PHILOSOPHY AND SUFISM. In *E Conference Zone* (pp. 17-25).
23. Nizomi, A. B. M., & Al-Khorazmi, K. A. O. (2022). Sufism as a way of self-implementation and knowledge of the truth. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(11), 199-204.
24. MAMARASULOVICH, A. B. (2018). INNOVATORY METHODS OF WORKING WITH UNORGANIZED YOUTH. *European Science Riview*.
25. MAMARASULOVICH, A. B. (2021). Баркамол ёшларни тарбиялашда маънавий-ахлоқий мезон ва меъёрларнинг ўрни. *АНДИЖОН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ ИЛМИЙ ХАБАРНОМА*.
26. Абсатторов, Б. (2019). ШАХС МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ БАРКАМОЛЛИГИ МЕЗОНЛАРИНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАЛҚИНЛАРИ. *Scienceweb academic papers collection*.
27. MAMARASULOVICH, A. B. (2020). ИНСОН ФАОЛИЯТИДА АХЛОҚИЙ МЕЪЁРЛАРНИ ШАКЛАНТИРИШ МЕЗОНЛАРИ. *Вестник Каракалпакского государственного университета им. Бердаха*.
28. Mamarasulovich, A. B. (2023, January). YOSH AVLODNI MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASH-XALQIMIZ TARBIYAVIY AN'ANALARINING O 'ZIGA XOS JIHATLARI SIFATIDA. In *Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies* (Vol. 2, No. 1, pp. 273-281).